

**THE ROLE OF STATE AND LEGAL SUBJECTS IN TEACHING
CRIMINAL LAW TO THE STUDENTS OF "TEMURBEKLAR
MAKTABI" MILITARY ACADEMIC LYCEUM**

Shakirova Nafisa Abrorovna

Tashkent "Temurbeklar maktabi" the teacher of state and law
fundamentals

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14698951>

ARTICLE INFO

Received: 13th January 2025

Accepted: 17th January 2025

Online: 18th January 2025

KEYWORDS

Law, legal sciences, legal
culture, offense, legal liability,
crime, signs of crime, criminal
code.

ABSTRACT

*This article analyzes the importance of legal documents in
teaching the field of criminal laws in the subjects of State
and Legal Fundamentals in Military Academic Lyceums
"Temurbeklar Maktabi".*

**"TEMURBEKLAR MAKTABI" HARBIIY AKADEMIK LITSEYI O'QUVCHILARIGA
JINOYAT HUQUQINI O'QITISHDA DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINING
O'RNI**

Shakirova Nafisa Abrorovna

Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi

Davlat va huquq asoslari fani katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14698951>

ARTICLE INFO

Received: 13th January 2025

Accepted: 17th January 2025

Online: 18th January 2025

KEYWORDS

Huquq, huquqiy fanlar, huquqiy
madaniyat, huquqbuzarlik,
yuridik javobgarlik, jinoyat,
jinoyat belgilari, jinoyat
kodeksi.

ABSTRACT

*Ushbu maqolada "Temurbeklar maktab" harbiy akademik
litseylarida Davlat va huquq asoslari fanlarida jinoyat
huquqi sohasini o'qitishda qonun hujjatlarining
ahamiyati tahlil qilingan.*

O'zbekiston Respublikasida amaldagi ta'lim qonunchiligi so'nggi yillarda takomillashib, o'quvchi yoshlarning bilim olishlari va ularni kelgusida etuk va malakali kadr bo'lib etishishlari uchun huquqiy asos sifatida ahamiyatga egadir. Zotan, ta'lim olish huquqi mamlakatimizda konstitutsiyaviy kafolatlangani fikrimizning yorqin isbotidir. Ayniqsa, maktab va litseylarda huquq fanlarini o'qitish borasida olib borilayotgan islohotlar haqida gap ketganda, alohida ta'kidlash lozimki, huquqiy fanlardagi mavzularning barchasi o'quvchilarni huquqiy munosabatda ishtirok etishda huquq normalariga rioya etish asosida tarbiya qilinadi.

Huquqiy fanlarning o'qitishning asosiy maqsadi, bu eng avvalo o'quvchilarda huquq tushunchasini shakllantirish, hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini jamiyatdagi



o'rni va ahamiyatini, uning mazmun-mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish, eng asosiysi qay sohani tanlashmasin huquqiy ong va madananiyatlarini rivojlantirishimiz zarur.

Bejizga jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish¹ masalasi shuningdek yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, [Konstitutsiyaning](#) muhim jihatlari ularga bolaligidan boshlab o'rgatish² masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida Prezident farmoniga kiritilgan.

Hozirgi innovatsion texnologiyalar davrida huquq fanlarini o'qitishda an'anaviy darslar emas, balki noan'anaviy darslarni tashkil etish muhimroqdir. Huquq fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchi va o'qituvchi faoliyatini o'zgarishiga, yangilik kirita olishiga, o'quv jarayonida interaktiv metodlardan unumli foydalanishiga hamda o'quvchining fani o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda "Temurbeklar maktab"larida huquqiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-sonli "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida qaroriga muvofiq bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi tarkibida prinsipial yangi «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseylari faoliyat yuritmoqda.

Ushbu qarorning asosiy maqsadi yuksak intellektual salohiyatga, zamonaviy fikrlash hamda dunyoqarashga ega, davlatimiz manfaatlari va suverenitetini fidokorona himoya qilishga tayyor bo'lgan har tomonlama kamol topgan, jismonan sog'lom va ma'naviy etuk yosh avlodni tarbiyalash tizimini yaratishga qaratilgan davlat siyosatini faol va izchil amalga oshirishni ta'minlash³dan iboratdir.

«Temurbeklar maktablari»ning asosiy vazifalaridan biri esa o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish;

xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo Amir Temurning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo'lida o'zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash;

o'quvchilarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida PF-5618-sonli Manba.: Lex.uz

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida PF-5618-sonli Manba.: Lex.uz

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4375-sonli Manba.: Lex.uz



mustahkam bilimlarni shakllantirish, shuningdek, ularga harbiy ishdagi boshlang'ich bilimlarni singdirish;

notiqlik va etakchilik xislatlariga ega, jismonan rivojlangan, chidamli, mard va jasur Vatan himoyachilarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar rezervini shakllantirish maqsadida respublikaning oliy, oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun munosib nomzodlarni tayyorlash etib beligilangan.

Shunday ekan bunda barcha fanlar qatori Huquq fanlarini o'qitishda ham alohida izchillik bilan yondashish talab etiladi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tining 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli qarori va unga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi", Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi PQ-140-sonli qarori bilan amaliyotgan kiritilgan "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi", Qurolli Kuchlar zaxirasini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan harbiy-akademik litseylar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarini ta'lim va tarbiya jarayonida belgilab berilgan ustuvor yo'nalish asos qilib olingan.

Jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim nazariyasi va metodikasini takomillashtirishga doir huquqiy klinika (legal clinic)larni tashkil etish masalasi (AQSH, Avstraliya); inson huquqlarini o'qitish (Fransiya); huquqiy ta'lim nazariyasi va metodikasini takomillashtirish masalasi (noyuridik oliy ta'lim muassasalari misolida Rossiya va Ukraina davlatlarida) amaliyotga tadbiriq etilgan. Qolaversa, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar (AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya) ta'lim tajribasida oliy ta'lim muassasalarida huquq fanlarini samarali o'qitishga erishish, talabalarda erkin, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida huquqiy mazmundagi o'quv keyslaridan, huquqiy kazuslardan iborat topshiriqlardan foydalaniladi.⁴

Darhaqiqat, "Temurbeklar maktabi" o'quvchilariga Konstitutsiya va uning mohiyati, inson bilan qonun bog'liqligi, qonunlar, inson huquqlari, fuqarolarning burchlari haqidagi dastlabki ta'savvurlarni hosil qiladilar.⁵ Umumta'lim maktablarining 10-11 sinflari yoki akademik litseylarda jamiyat, davlat, shaxs va huquq tushunchalari axloq va huquq munosabatlari, davlat shakllari, huquqiy munosabatlar, huquqbuzarlik va uning kelib chiqishi, voyaga etmaganlarning huquq va burchlari haqidagi tushunchalar, oila huquqi haqidagi tushunchalar hosil qilinadi. Shuning uchun o'qitishda faol usullardan unumli foydalanish hamda dars mazmunini o'quvchiga samarali etkazish talab etiladi. Huquqiy bilimlar zaminida normativ hujjatlar, zamoanviy qonunchilik yutuqlari, tarixda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan olimlarning huquq fanlariga oid ishlari bilan tanishtirish

⁴ Tursunov Farrux G'ulomovich "Noyuridik Oliy ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim nazariyasi va metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. – T.: 2020. – B.:3

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi akademik litseylarning davlat va huquq asoslari fani o'quv dasturi I-II-kurslar.T.2018 B.:3




orqali o'quvchilarni milliy istiqloq va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash huquq fanlaridan olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish konsepsiyalarini shakllantirishga xizmat qilish lozim.

Agar biz Huquqshunoslik darslarini tahlil qilsak Miliy dasturlar bo'yicha 8-sinf O'zbekiston Davlati va huquqi asoslari darsligida (2019):

V BOB	
HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK	
22- mavzu. Huquqbuzarlik	124
23- mavzu. Yuridik javobgarlik	129
24- mavzu. Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari	134
25- mavzu. Adliya vazirligi. Advokatura va Notarial idoralar	140
26- mavzu. Qurolli kuchlar va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash	146
Bob yuzasidan namunaviy testlar	152

8-sinf O'zbekiston Davlati va huquqi asoslari darsligida (2024):

III BOB	 HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK
17–18-dars. Huquqiy xulq-atvor	65
19–20-dars. Huquqbuzarlik	69
21–22-dars. Yuridik javobgarlik	76
23–24-dars. Yuridik javobgarlikning oqibatlari	81
25–26-dars. Ijodiy faoliyat	87

Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik bobida:

Huquqiy xulq-atvor tushunchasi va turlari. Huquqbuzarlik tushunchasi, belgilari va turlari. Huquqbuzarlikning yuridik tarkibi. Yuridik javobgarlik Yuridik javobgarlik tushunchasi, belgisi, turlari. Yuridik javobgarlik maqsadi, funksiyalari va prinsiplari. Yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar. O'zbekiston Respublikasida yuridik javobgarlikni liberallashtirish borasidagi sud-huquq islohotlari bo'yicha dastlabki tushunchalar berilgan.

O'zbekiston Davlati va huquqi asoslari darsligida (2019):

VI BOB	
VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQLARI, BURCHLARI	
27- mavzu. Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari	154
28- mavzu. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari	159
29- mavzu. Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari	164
30- mavzu. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari	169
Bob yuzasidan namunaviy testlar ..	175
Ilova: Voyaga yetmaganlarning huquqlari va burchlari	178
"O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" dan masalalar	181
Ayrim yuridik atamalarning izohli lug'ati	185



8-sinf O'zbekiston Davlati va huquqi asoslari darsligida (2024):

IV BOB	VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQ VA BURCHLARI
	27-dars. Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari..... 91
	28-dars. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlarida..... 95
	29–30-dars. O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning javobgarligi 100

Voyaga yetmaganlar huquqlari va burchlari bobida:

Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlarida o'quvchilarga sodda tilda jinoyat huquq bo'yicha ma'lumot berilgan.

9-10 sinf darsliklarida Jinoyat huquqi bo'yicha hech qanday ma'lumot berilmagan.

11-sinf Davlat va huquq asoslari darsligida(2018):

II bo'lim. JINOYAT HUQUQI

7-§ Jinoyat huquqining maqsadi, vazifasi va tamoyillari.....	34
8-§ Jinoyat belgilari	39
9-§ Jinoiy javobgarlik va jazo tizimi	44
10-11-§ Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar	51
12- § Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar	62
13- § Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar	68
14- § Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar.....	74
15- § Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar	81
16- § Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar	86
17- § Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar.....	89

Agar biz mavzularni tahlil qilsak:

1.Jinoyat huquqining maqsadi, vazifasi va tamoyillari mavzusida biz o'quvchilarga:

- Ilk bor jinoyat tushunchasi qachon vujudga kelganligi;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jinoyat huquqining asosiy manbayi ekanligini.;
- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
- Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplarini tushuntirishimiz lozim..


2.Jinoyat belgilarida:

- Jinoyat belgilari. Ayb, ayb shakllari, qasd.
- Qilmishning jinoiyligini istisno etadigan holatlar.
- Ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etish va uning oqibatlari mavzularni tushuntirishda O'zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksidan foydalanishimiz lozim.

3. Jinoiy javobgarlik va jazo tizimi



- Jinoiy javobgarlik tushunchasi.
- Jinoiy javobgarlik asosi sifatida jinoyat tarkibi: tushunchasi va ahamiyati. Jinoyat tarkibining tuzilishi.
- Jinoyat tarixining zaruriy va fakultativ belgilari. Jinoyat tarkibining turlari.
- Jazo tushunchasi, maqsadlari va turlari. Jazo tizimi tushunchasi va turlari. Jazo tayinlash. Sudlanganlik.
- Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligi xususiyatlari O'zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksidan foydalanishimiz lozim.
 4. Insonning sha'ni va qadr qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar
 5. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar.
 6. Xatyoziqshmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarining sirsaqalanishi tartibi.
 7. Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishning huquqiy oqibati. O'zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qismidan foydalanishimiz lozim.



V	bo'lim. PROTSESSUAL HUQUQ	
	25-26-§ Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari	127
	27- § Jinoyat protsessi ishtirokchilari	132
	28- § Jinoyat protsessual qonunchilikda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar	136

Ushbu mavzuni tahlil qilishda Jinoyat protsesual kodeksidan foydalanishimiz lozim.

Mavzularni chuqur tahlil qilishda kazuslar, testlar orqali mustahkamlasak to'g'rib o'ladi.

Xulosa o'rnida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning ushbu so'zlarini ta'kidlamoqchiman: "Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval "Huquqni anglash mas'uliyat hissini rivojlantiradi", deb aytgan so'zlari hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.⁶ Shunday ekan o'quvchi yoshlarimiz huquqni anglashlari va mas'uliyatli bo'lishlari uchun huquqiy fanlarni o'qitishni takomillashtirishimiz lozimdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida PF-5618-sonli Manba.: Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4375-sonli Manba.: Lex.uz
3. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.2019.7-dekabr

⁶ Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.2019.7-dekabr



4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi akademik litseylarning davlat va huquq asoslari fani o'quv dasturi I-II- kurslar.T.2018 B.:3 5.Tursunov Farrux G'ulomovich "Noyuridik Oliy ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim nazariyasi va metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. – T.: 2020. – B.:3
5. 8-sinf O'zbekiston Davlati va huquqi asoslari darsligi."Huquq va Jamiyat nashriyoti.2019
6. 8-sinf O'zbekiston Davlati va huquqi asoslari darsligi. Respublika ta'im markazi.2024
7. 11-sinf Davlat va huquq asoslari darsligi Toshkent. Yangi yo'l Poligraph Service 2018):